Ma'lumki, 2025-yil 25-fevraldagi "Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida"gi OʻRQ–1038-sonli Qonunga asosan dastlabki tergov vakolati berilgan organlar soni yana bittaga koʻpaydi. Ushbu sanadan boshlab Bosh prokuratura hu-


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

zuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga (keyingi oʻrinlarda departament) nafaqat tezkor-qidiruv faoliyati va surishtiruv, balki dastlabki tergovni amalga oshirish vakolati ham berildi (Republic of Uzbekistan, 2025a).

Mazkur qonun bilan dastlabki tergov vakolati va unga bogʻliq tergovga tegishlilik masalalari ham belgilandi. Unga koʻra, Jinoyat kodeksining 177-moddasi uchinchi va toʻrtinchi qismlarida, 180–$181^{1}$-moddalarida, 184-moddasi uchinchi qismida, 186-moddasi ikkinchi qismida hamda $186^{1}$-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarga doir ishlar boʻyicha dastlabki tergovni aynan departament tergovchilari amalga oshirishi qayd etilgan.

Biroq shu oʻrinda tergovga tegishlilik va tergovga taalluqlilik tushunchalari oʻzaro farq qilishini, yaʼni taalluqlilik hududiy va idoraviy jihatdan aynan qaysi turdagi jinoyatlar qaysi organ tomonidan tergov qilinishini belgilovchi masala ekanligini unutmaslik lozim.

Shu jihatdan qaysi holatda tegishlilik, qaysi holatda taalluqlilik masalalari qonunchilikda tartibga solinganini aniqlashtirish muhimdir. Bu borada kodifikatsiya shakllanishining Fransiya modeli hamda RSFSR davridagi qonunchilik tajribasi rus tilidagi huquqiy terminologiyaga murojaat qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Rus tilining izohli lugʻatlariga koʻra, “подследственность” va “подведомственность” tushunchalari oʻzaro farqlanadi. “Подследственность” tushunchasi turli tergov organlari oʻrtasida jinoyat ishlarini tergov qilish vakolatlarini chegaralashni anglatadi (Kuznetsov, 2020). Katta sovet ensiklopediyasida esa bu tushuncha dastlabki tergov oʻtkazilishi lozim boʻlgan jinoyat ishlarini turli tergov va surishtiruv organlari oʻrtasida taqsimlash sifatida izohlangan. Unda tegishlilikning uch turi ajratiladi: predmet (turga oid), hududiy (mahalliy) va ishlarning oʻzaro bogʻliqligi boʻyicha (Prokhorov, 2010).

M.V. Kondratenkova esa yuridik ensiklopediyalarga asoslanib, tergovga tegishlilikni jinoyat ishining xususiyati, sodir etilgan joyi hamda jinoyat subyektiga qarab dastlabki tergovni olib boruvchi organlar oʻrtasidagi vakolatlar taqsimoti sifatida taʼriflaydi. Keng maʼnoda esa bu jinoyat-protsessual huquqning bir boʻlimi boʻlib, muayyan jinoyat ishini qaysi organ yoki mansabdor shaxs tergov qilishga vakolatli ekanligini belgilaydi. Ushbu tushuncha tergovning qonuniyligi va samaradorligini taʼminlashda muhim ahamiyatga ega, deb hisoblanadi.

M.V. Kondratenkova tomonidan bildirilgan mazkur yondashuvni qisman maʼqullash mumkin. Chunki tergovga tegishlilikning jinoyatning xususiyati, sodir etilgan joyi va subyektiga qarab belgilanishi amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilik mazmuniga mos keladi. Biroq muallif yondashuvida tergovga tegishlilik va tergovga taalluqlilik kategoriyalarining oʻzaro farqlari yetarli darajada ajratib koʻrsatilmagan. Bizningcha, tergovga tegishlilik jinoyat ishini qaysi vakolatli organ tergov qilishi bilan bogʻliq protsessual institut boʻlsa, tergovga taalluqlilik ayni organ tizimi ichida qaysi darajadagi boʻlinma tomonidan tergov olib borilishi bilan tavsiflanadigan tashkiliy-protsessual institut sifatida baholanishi lozim.

Demak, yuqoridagilar tahlilidan maʼlum boʻladiki, “подследственность” tushunchasi oʻz navbatida oʻzbek tilidagi tergovga tegishlilik tushunchasiga mos keladi. Qanday boʻlmasin, bu borada amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligimizning rus tilidagi matnida ham aynan ushbu tushuncha qoʻllanganligi bois, ularning oʻzaro mosligi normativ jihatdan ham mustahkamlanganligini unutmasligimiz lozim.

“Подведомственность” tushunchasi rus izohli lugʻatlarida bir oz oʻzgacha taʼriflanib, unga koʻra ishlarning davlatning alohida organlari vakolatiga kiritilishi deb qayd etilgan (Kuznetsov, 2020). Yuridik lugʻat va ensiklopediyalarda esa davlat hokimiyati tomonidan hal qilinishi lozim boʻlgan huquqiy nizo va boshqa yuridik ishlarning qaysi davlat organi, jamoat tashkiloti yoki hakamlik sudi vakolatiga tegishliligi sifatida izohlangan. Yaʼni yuridik ishlarning oʻziga xos xususiyati muayyan yurisdiksiya organlari tomonidan koʻrib chiqilishi va hal etilishi kerak boʻlgan holatdir (Sukharev, 2008).

Bu sudlarda oʻzgacharoq qoida sifatida qayd etilgan boʻlib, uni tushunish va anglash nisbatan osonroq kechadi. Xususan, sudlarda taalluqlilik masalasi nizoning fuqarolik, maʼmuriy, iqtisodiy yoki jinoyatga oid ekanligi bilan belgilansa, tegishlilik esa bir sud tizimi doirasida ishni koʻrib chiqishda aynan qaysi sud vakolatli ekanligini, yaʼni birinchi instansiya – tuman (shahar) sudlari, apellyatsiya yoki kassatsiya instansiyasi – viloyat sudlari va boshqalarni nazarda tutadi (Odashev, 2021).

Demak, yuqoridagi olimlarning fikrlari va tarjima-izohli lugʻatlardagi maʼlumotlardan maʼlum boʻladiki, tergovga tegishlilik va tergovga taalluqlilik borasidagi terminologik yondashuvlar yetarli darajada farqlanmagan hamda ularni ajratish boʻyicha fundamental tadqiqotlar oʻtkazishni taqozo etadi. Sababi sudlardagi tegishlilik va taalluqlilik qoidalari jinoyat ishlari boʻyicha tergov yuritishdan bir muncha farq qiladi. Masalan, sudlarda taalluqlilik qoidalari normativ jihatdan mustahkamlangan boʻlib, bunda nizoning turi aynan qaysi sudga taalluqli ekanligini belgilaydi. Sudlardagi tegishlilik esa aniq belgilangan vakolatli nizoni qaysi instansiya sudi koʻrib chiqishini nazarda tutadi.

Bundan tashqari, tergovga taalluqlilik sudlardagi tushunchalar bilan oʻzaro teskari mazmunda qoʻllanishi bilan bogʻliq farqlarni ham kuzatish mumkin. Biroq protsessual tartibda belgilangan tushunchalarga koʻra, hozirgi holatga mos taʼrif shulardan iborat deb hisoblaymiz. Keng maʼnoda tergovga taalluqlilik deganda jinoyat protsessida ishni yuritish vakolati qaysi darajadagi tergov organiga (tuman/shahar, viloyat, respublika/markaziy apparat) biriktirilishi lozimligini ifodalovchi, qonunchilikda bevosita tartibga solinmagan, ammo idoraviy buyruq, nizom va yoʻriqnomalar bilan belgilanadigan tashkiliy-protsessual institut tushuniladi.

U muayyan jinoyat ishining murakkabligi, epizodlar soni, jinoyatning xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasi, tergov organlarining ixtisoslashuvi hamda yuqori boʻgʻin tergov organlarining amaliy resurs va vakolatlariga binoan, ishni qaysi darajadagi tergovchi tomonidan koʻrib chiqilishi lozimligini belgilaydi.

Boshqa organlarning tergovga taalluqlilik masalalarining idoraviy buyruqlar asosida hal etilishi kuzatiladi. Masalan, Ichki ishlar organlari (keyingi oʻrinlarda IIO) tergov boʻlinmalarida Oʻzbekiston Respublikasi IIVning 2017-yil 12-iyundagi 100-sonli buyrugʻi bilan tasdiqlangan "Oʻzbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida surishtiruv va dastlabki tergovni tashkil etish tartibi toʻgʻrisidagi Yoʻriqnoma"ga asosan viloyat yoki markaziy boʻlinmalardagi tergov boʻlimlari tergovchilari tomonidan qaysi turdagi (murakkab, koʻp epizodli va boshqalar) jinoyat ishlari tergov qilinishi belgilab qoʻyilgan (Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2017). Shu bilan birga, mazkur yoʻriqnomada tergovni tashkil etish boʻyicha juda koʻp masalalar tartibga solingan boʻlib, ushbu buyruq bilan hatto tergovchilarning protsessual mustaqilligi bilan bogʻliq muhim qoidalar ham mustahkamlangan.

Misol uchun, yoʻriqnomaning 7-bobi 46-bandida IIO tergovchisiga nisbatan Tergov boshqarmasi tomonidangina xizmat tekshiruvi tayinlanishi va unga nisbatan faqatgina boshqarma boshligʻining imzosi bilan xizmat tekshiruvi tayinlanishi mumkinligi, 45-bandda tergovchi va tergov rahbarlariga Tergov departamenti boshligʻi bilan kelishilgan holda Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining buyrugʻi bilan intizomiy jazo berilishi mumkinligi, qolgan barcha hollarda ularni intizomiy javobgarlikka tortilishi qatʼiyan man etilishi, hududiy IIOlarda faqatgina ichki tartibga boʻysunilishi, tergovchi bilan bogʻliq har qanday holat faqatgina tergovchilar vakillari ishtirokida amalga oshirilishi mustahkamlangan (Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2017).

Bugungi kunda yangi tashkil etilgan Bosh prokuratura departamenti faoliyatida koʻplab idoraviy masalalar vujudga kelmoqda Ulardan dastlabkisi bu tergovning taalluqliligidir. Shuningdek, tergovni tashkil etish, tergovchilarning protsessual mustaqilligi kafolatlari, daxlsizligi, huquqiy va ijtimoiy muhofazalanishi, ragʻbatlantirilishi va intizomiy javobgarligi, xizmat tekshiruvi asoslari va oʻtkazish tartibi va boshqa yuzlab masalalarni tartibga solinishi lozim boʻlgan Oʻzbekiston Respublikasi Bosh prokurori buyrugʻi (idoraviy buyruq) asosida tasdiqlanuvchi nizom qabul qilinishiga ehtiyoj mavjud.

Mazkur buyruq va nizomning qabul qilinishi nafaqat ichki tartib-qoidalar belgilanishiga, balki Bosh prokuratura departamenti tergovchilarining jinoyat ishlari boʻyicha protsessual mustaqilligi kafolatlarining normativ jihatdan mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Sababi tergovchining protsessual mustaqilligi nafaqat tashqi taʼsirlardan, balki ichki idoraviy taʼsirlardan ham muhofaza qilinishi lozim.

Shu bilan birga, bugungi kunda Bosh prokuratura departamenti tergov boʻlinmalari faoliyatidagi quyidagi huquqiy boʻshliqlarni bartaraf etish lozim, deb hisoblaymiz.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-yanvardagi “Yashirin iqtisodiyotiga qarshi kurashish sohasida davlat nazorati mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni asosida yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish borasida davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlari belgilandi, bunda:

yashirin iqtisodiyot koʻlamini keskin qisqartirish orqali mamlakatda sogʻlom raqobat va xususiy biznesni rivojlantirish;

yashirin iqtisodiyot shakllanishining turli sxemalari, xufiyona ishlab chiqarish va noqonuniy moliyaviy oqimlarga barham berish orqali iqtisodiy barqarorlikni hamda aholi farovonligini ta’minlash;

iqtisodiyotdagi xufiyona aylanmalarga qarshi kurashuvchi davlat organlari faoliyatining aniq yoʻnalishlarini belgilash orqali mas’uliyati va javobgarligini oshirish;

keng jamoatchilikda yashirin iqtisodiyotga murosasizlik hissini shakllantirish belgilandi (Matnazarov, 2024a).

Eng muhimi farmonda, Bosh prokuror taqdimiga binoan faqatgina Prezident tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan departament boshligʻi endilikda Bosh prokuror oʻrinbosari hisoblanishi qoida tariqasida belgilandi (Karshiyev, 2024).

Buni alohida tahlil qilishimiz lozim boʻladi, sababi departamentning tergov-surishtiruv faoliyati bevosita protsessual faoliyat va uni bir tomondan idoraviy, boshqa tomondan protsessual prokuror nazorati bilan qamrab olinadi.

Bugungi kunda Departament tergov boʻlinmalari tergovchilarining jinoyat ishlarini tergov qilish ustidan prokuror nazoratini, departamentining markaziy apparatida departament rahbari amalga oshirishga vakolatli hisoblanadi, sababi mazkur lavozim bir vaqtning oʻzida Bosh prokuror oʻrinbosari hisoblanadi va jinoyat ishlarini sudlarga yuborishdan oldin JPKning 388-moddasi tartibida tasdiqlaydi. Biroq ushbu tartib viloyatlarda mutlaqo oʻzgacha tartibda amalga oshirilib kelinmoqda, ya’ni Farmonda faqatgina departament rahbariga Bosh prokuror oʻrinbosari maqomi berilgan boʻlib, viloyatlarda hududiy departament rahbariga viloyat prokurorining oʻrinbosari maqomi berilmagan. Bu esa oʻz navbatida, departament tergov boʻlinmalari tergovchilarining protsessual mustaqilligini cheklash bilan bogʻliq turli xildagi amaliyotga sabab boʻlmoqda. Sababi tergovchilar tamomlagan har qanday turdagi jinoyat ishi viloyat prokuraturasining tergov tarmoqlari ustidan nazorat boʻlimi orqali viloyat prokurorining tasdigʻidan soʻng tegishli sudlarga jinoyat ishlarining yuborilishi protsessda bir qancha qoʻshimcha nazorat shakllarini hosil boʻlishiga, bu esa oʻz navbatida ushbu idoraning tergovchilari protsessual mustaqilligiga daxl qilmoqda, degan fikrdamiz.

Prezident Farmonida belgilangan vazifalarni hayotga toʻlaqonli tatbiq etish hamda tashkil etilgan yangi tizim faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilib borish maqsadida Bosh prokuror oʻrinbosari lavozimi joriy etilib, bir vaqtning oʻzida Departament boshligʻi sifatida belgilanishi, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda mas’ul boʻlgan yagona va mustaqil tizimga ushbu mas’uliyatli vazifani topshirish bosh maqsad sifatida belgilangan edi (Matnazarov, 2024b). Biroq amaliyot koʻrsatmoqdaki, viloyat miqyosida ham departament rahbari viloyat prokurori oʻrinbosari sifatida belgilanmas ekan, uning prokuror sifatida protsessual nazorati toʻlaqonli va mustaqil boʻlmaydi, bu esa jinoyat ishlari boʻyicha qoʻshimcha nazoratning koʻpayishiga, hatto tergovning protsessual faoliyatiga daxl qilish kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Bundan tashqari, departament vakolatiga berilgan iqtisodiy turdagi jinoyatlar mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilganida ularning tegishliligi bilan bogʻliq qoidalar savol ostida qoladi. Sababi JPKning 345-moddasi ikkinchi qismida prokuratura tergovchilariga tegishli jinoyatlar roʻyxati keltirilib, qoʻshimcha ravishda “qonunda koʻrsatilgan ayrim toifadagi mansabdor shaxslarning jinoyatlariga doir ishlar boʻyicha dastlabki tergov prokuratura organlarining tergovchilari tomonidan amalga oshiriladi”, deb belgilangan.

Moddaning mazkur qismini tahlil qiladigan boʻlsak, qonunda koʻrsatilgan ayrim toifadagi mansabdor shaxslar deganda qaysi qonun va qaysi toifadagi mansabdor shaxslar nazarda tutilganligi mavhumligicha qolgan, bu borada “Prokuratura toʻgʻrisida”gi Qonunning 29-moddasiga murojaat qilsak, unda prokuratura organlari tomonidan jinoyatlarni tergov qilish normasi belgilangan boʻlsa-da (moddaning nomlanishi), lekin prokuratura organlari jinoyat-protsessual qonunga binoan oʻz vakolatlariga berilgan jinoyatlar

to'g'risidagi ishlar yuzasidan tergov o'tkazishi orqali JPKning 345-moddasiga qayta urg'u berilgan.

Bu esa amaliyotda sodir etilgan iqtisodiy turdagi jinoyatlar mansabdor shaxslar tomonidan sodir etilgan hollarda jinoyat ishi tegishliligiga ko'ra, prokuratura organlari tergovchilarining yurituvidami yoki departament tergovchilarining tergovidami, degan munozaralarga sabab bo'lmoqda. Qolaversa, departament ham Bosh prokuratura huzurida ekanligi bois, uning ham prokuratura tergovchisi sifatida maqomi mavjudmi, degan qo'shimcha savollarni tug'dirmoqda.

Bizningcha, JPKning 345-moddasida nazarda tutilgan departament tergoviga tegishli bo'lgan jinoyatlar kim tomonidan sodir etilishidan qat'i nazar, departament tergovchilari tomonidan tergov qilinishi lozim.

G.P. Ximicheva fikriga ko'ra, "tergovchining protsessual mustaqilligi kafolatlari aynan jinoyat-protsessual qonunchilik bilan mustahkamlanishi lozim. Ayrim hollarda maxsus organlar tarkibida bo'lgan tergovchilarning protsessual kafolatlari yoki ularning daxlsizligi alohida qonun hujjatlari bilan muhofazalanadi. Bu esa jinoyat jarayonida tomonlarning majburiyatlardan xabarsiz qolishi, ushbu majburiyatlarni bajarmasligi yoki bu huquqlarni poymol qilishgacha bo'lgan oqibatlarga sabab bo'lishi mumkinligini anglatadi" (Khimicheva, 2003), deya ta'kidlaydi.

Mazkur fikrlarga qo'shilgan holda shuni e'tirof etish lozimki, tergovchi faoliyati haqiqatan ham Jinoyat-protsessual kodeks bilan tartibga solinadigan mansabdor shaxs hisoblanadi. Mazkur moddiy huquqni amalga oshiruvchi protsessual normalarni kodifikatsiya qilishdan ham maqsad aynan shudir. Biroq kodeksdan tashqari ham ayrim qonun hujjatlari bilan bunday mansabdor shaxslarga ayrim majburiyatlar yuklanmoqda.

Xususan, 2024-yil 29-fevraldagi O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo'yicha vakili (Bolalar ombudsmani) to'g'risida"gi O'RQ–917-son Qonunining "Bola huquqlari bo'yicha vakilning huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sud bilan hamkorligi" nomli 36-moddasida, "Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bolalarning hayotiga, sog'lig'iga yoki jinsiy erkinligiga qarshi jinoyatlar, shu jumladan o'n olti yoshga to'lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish yoki jinsiy ehtiyojni g'ayritabiiy usulda qondirish yoxud unga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar qilish, voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlarning ijrochisi sifatida jalb etish, voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda qo'shmachilik qilish, fohishaxonalar tashkil etish bilan bog'liq jinoyatlar to'g'risida ma'lumotlar olingan taqdirda jinoyat ishini qo'zg'atish haqida yoki jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilganda bu haqda Bola huquqlari bo'yicha vakilni uch kun ichida yozma shaklda xabardor qiladi" (Republic of Uzbekistan, 2024b), deya belgilangan.

Protsessual qonunchilikda tergovchining vakolati, daxlsizligi, protsessual mustaqilligi yoki uning kafolatlari bo'yicha har qanday tartib-qoida, majburiyat yoki huquq to'g'ridan to'g'ri, bevosita va bilvosita qayd etilishi lozim, deb hisoblaymiz. Aks holda protsessual qonunchilikni kodifikatsiya qilishdan ko'zlangan maqsadga erishilmay qoladi.

S.B. Rossinskiy va D.B. Bazarovaning (2023) fikriga ko'ra, protsessual mustaqillik faqatgina protsessual qoidalardan iborat bo'lib qolmasdan, u amaliyotda ham ishlashi lozim. Buning uchun tergovchining bunday huquqlardan foydalanishining real imkoniyatlarini ta'minlash mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish zarur.

V. Bykov (2012), B. Gavrilov (2009) va boshqa bir qator olimlar ham tergov va protsessual harakatlarni amalga oshirishda tergovchining mustaqil ravishda protsess ishtirokchilariga tartib belgilashi, zarur sharoitni o'z mulohazasi va ixtiyoriga ko'ra belgilashi, dalillarga faqat ichki ishonch va huquqiy ongga amal qilgan holda baho berishi hamda protsessual qarorlarni hech kimning majburiy tasdig'isiz qabul qilishi uning protsessual mustaqilligini anglatishini ta'kidlaydilar va bunday qoidalarni jinoyat-protsessual qonunchiligida mustahkamlash muhimligini qayd etadilar.

Biroq boshqa bir toifa olimlar, xususan, R. Jamiyeva, G. To'laganova, F. Ibratova (Zhamieva et al., 2021) va yana bir qator mualliflar bu fikrga qo'shilmaydilar. Ularning fikriga ko'ra, tergovchi boshqa protsess ishtirokchilariga nisbatan o'z vakolatini amalga oshirishi mustaqillik deb baholanmasligi lozim. Masalan, prokuror jinoyat ishini sudga qadar yuritish bosqichida nazoratni amalga oshiradi, sud jarayonida davlat ayblovini quvvatlaydi va hokazo. Bu jarayondagi vakolatlar prokurorning protsessual funksiyasini ifodalaydi.

Biroq sud qarorlariga nisbatan protest keltirish vakolati prokurorning jinoyat protsessidagi nisbatan mustaqil oʻrnini koʻrsatadi.

Demak, ikkinchi guruh olimlarining fikrlari bilan toʻliq kelishish qiyin. Chunki protsessual mustaqillikning ijtimoiy-huquqiy mohiyati shundan iboratki, ishni tarixiy yoki siyosiy mafkuralar vositasi sifatida emas, balki adolatni taʼminlashga yoʻnaltirilgan shaxsiy masʼuliyat asosida hal etish, yaʼni qarorlarni ichki ishonch va huquqiy ongga tayangan holda qabul qilishdir.

Yuqorida sanab oʻtilgan tergovchining protsessual funksiyalaridagi mustaqilligini inkor etib boʻlmas ekan, uni huquqiy jihatdan prinsip sifatida mustahkamlash tergovchining protsessual mustaqilligi kafolatlarini yanada kuchaytiradi, degan fikrdamiz. Jumladan, bu borada koʻplab olimlar ushbu taklifni ilgari surgan boʻlsa-da, tergovchining protsessual mustaqilligini prinsip darajasida mustahkamlash Jinoyat-protsessual kodeksning bir necha oʻnlab moddalariga oʻzgartirish kiritishni talab qilishi mumkinligi sababli uni inkor etganlar ham mavjud.

Ammo tergovchi jinoyat protsessining eng muhim funksiya va vazifalarini bajaruvchi subyektlardan biri boʻlgani bois, uning maqomi va oʻrni alohida dolzarb ahamiyatga ega. Shu sababli, bizningcha, tergovchining mustaqilligi “umumiy shartlar” doirasidan ham kengroq tushuncha boʻlib, jinoyat protsessida ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Dastlabki tergovning mazkur qoidaga rioya qilinmagan holda oʻtkazilishi jinoyat-protsessual qonunchiligining vazifalarini taʼminlashga ham jiddiy salbiy taʼsir koʻrsatadi. Jinoyat protsessi prinsiplari ushbu sohada amalga oshirilishi uchun asos boʻladigan umumiy qoidalarni oʻzida mujassamlashtiradi. Mazkur sohadagi faoliyat qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirilar ekan, ushbu faoliyatga asos boʻluvchi asosiy qoidalar (prinsiplar) ham mustahkamlanishi lozim.

Xorijiy davlatlar tajribasi tahlili shuni koʻrsatadiki, tergovchining protsessual mustaqilligi aksariyat davlatlarda alohida jinoyat protsessi prinsipi sifatida bevosita mustahkamlanmagan boʻlsa-da, uning huquqiy mazmuni tergovchining mustaqil qaror qabul qilishi, ichki ishonch asosida dalillarni baholashi hamda tashqi aralashuvlardan himoya qilinishi orqali taʼminlanadi. Jumladan, Germaniya JPKda tergov faoliyati prokuror rahbarligida amalga oshirilsa-da, protsess ishtirokchilarining qonun va ichki ishonch asosida qaror qabul qilishi hamda dalillarni erkin baholashi muhim tamoyil sifatida eʼtirof etiladi (Strafprozessordnung – StPO). Qozogʻiston Respublikasi JPKning 60-moddasida esa tergovchining qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari protsessual qarorlarni mustaqil qabul qilishi bevosita belgilangan (Republic of Kazakhstan, 2001).

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi JPKning 38-moddasida tergovchining jinoyat ishi yoʻnalishini mustaqil belgilashi va tergov harakatlarini amalga oshirishi mustahkamlangan boʻlib, bu olimlar tomonidan uning protsessual mustaqilligining normativ asosi sifatida baholanadi (Russian Federation, 2001). Litva kabi Yevropa davlatlari tajribasi ham dastlabki tergov subyektlarining qonuniylik, ichki ishonch va mustaqillik asosida faoliyat yuritishini nazarda tutadi.

Bundan kelib chiqib, tergovchining mustaqilligi masalasini jinoyat protsessining prinsipi sifatida mustahkamlash mumkin va buni qonun darajasida belgilash zarur, deb hisoblaymiz.

Shu bilan birga, yuqorida ushbu fikrlarga qoʻshilmaydigan olimlarning tergovchining protsessual mustaqilligini prinsip darajasida belgilash kodeksning boshqa normalari bilan nomuvofiqlik keltirib chiqarishi mumkinligi haqidagi xavotirlariga javoban yuqorida tergovchining protsessual mustaqilligini ifodalovchi normalarning tahlili ushbu eʼtirozlarga raddiya sifatida xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, mazkur prinsipning kodeksda belgilanishi boshqa normalar bilan nomuvofiqlikni keltirib chiqarmaydi, deb oʻylaymiz.

**Muhokama**

*Birinchidan,* JPKning 345-moddasida departament tergovchilariga taqsimlangan jinoyatlar roʻyxatida asosan xufiyona iqtisodiyot va soliqdan qochish bilan bogʻliq jinoyatlarni tergov qilish vakolati berilgan boʻlib, ularni aksariyat hollarda davlat ulushi mavjud korxona, tashkilot, muassasalarning mansabdor shaxslari tomonidan sodir etish ehtimoli yuqori hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-yanvardagi “Yashirin iqtisodiyotiga qarshi kurashish sohasida davlat nazorati mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni mazmunida bu sohada yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish borasida

sansalorlikka yo'l qo'ymaslik uchun muqaddam iqtisodiyot va iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish bilan 14 ta organ tarqoq holda shug'ullanib kelgani va yagona davlat organi tomonidan qonun ustuvorligini ta'minlash asosiy maqsad qilinganligi sababli aynan departamentga ish bo'yicha dastlabki tergovni amalga oshirish vakolati berilgan;

*Ikkinchidan,* departament Bosh prokuratura huzurida faoliyat olib borishi belgilangan bo'lib, "Prokuratura to'g'risida"gi qonunning 10-moddasiga muvofiq, departament O'zbekiston Prokuratura organlari tizimiga kiradi. Bu esa o'z navbatida departament tergovchisi bir tomondan maxsus, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar bo'yicha dastlabki tergovni olib borishga vakolatli tergovchi va ikkinchi tomondan prokuratura organi xodimi, boshqacha qilib aytganda prokuratura tergovchisi sanaladi. Faqatgina tergov vakolati bo'yicha aniq yo'nalishda jinoyatlarni tergov qilishga ixtisoslashgani va shu jinoyatlardan boshqa jinoyat ishlari bo'yicha tergovni faqatgina prokuror roziligi bilangina amalga oshirishini unutmaslik lozim;

*Uchinchidan,* bugungi kunda prokuratura idoralarida faoliyat olib borayotgan prokurorning protsessual vakolatlaridan foydalangan holda bir qancha mustaqil faoliyat olib borayotgan prokuraturalar mavjud. Ular sirasiga O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, Transportdagi prokuratura, maxsus prokuratura va boshqalar kiradi. Mazkur prokuraturalarda jinoyat ishlari bo'yicha mustaqil nazorat amal qilinishi, tasdiqlanishi va faoliyat olib borayotgan tergovchilar ustidan nazoratning faqatgina bir tomonlama olib borilishi belgilangan bo'lib, Departamentning protsessual vakolati belgilangan bo'lsa-da, ushbu huquqdan to'la yoki qisman foydalana olmayotganligi tushunarsiz;

*To'rtinchidan,* departamentning markaziy tuzilmasida tergovchilarning jinoyat ishlarini tergov qilish ustidan mustaqil nazorat o'rnatilgan bo'lib, uning rahbari Bosh prokuror o'rinbosari hisoblangani bois, protsessual vakolatidan foydalangan holda jinoyat ishlari bo'yicha ayblov xulosasini mustaqil tasdiqlashi, qo'shimcha tergovga qaytarishi, ishni tugatilgan, to'xtatilganligi yoki boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirish vakolatini amalga oshirib kelayotgan bo'lsa, viloyatlardagi departament boshqarmalarida mazkur vakolat viloyat prokuraturalari orqali ikki tomonlama nazorat amalga oshirilib, ikki xil amaliyotga sabab bo'layotganligi va boshqalar.

Shu bois bu borada quyida taklif etilgan qonunchilikka kiritilishi lozim bo'lgan o'zgartirish va qo'shimchalar yuqoridagi sanab o'tilgan amaliy muammolarni ham bartaraf etishga xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

**Xulosa**

Yuqoridagi tahlillar bir qancha xulosalarni amalga oshirishga imkon beradi. Jumladan, jinoyat ishlari bo'yicha dastlabki tergov va surishtiruvni amalga oshirishda tegishlilik va taalluqlilik bilan bog'liq qoidalar protsessual darajada mustahkamlangan bo'lsa-da, bu boradagi mavjud qoidalardan kelib chiqib, ularga quyidagicha ta'rif berishni lozim topdik.

Jinoyat ishlarining tergovga tegishliligi – jinoyatning xususiyati, sodir etilgan joyi, shuningdek, jinoyat subyektiga qarab, dastlabki tergov yoki surishtiruvni olib boruvchi organlar o'rtasidagi vakolatlarning taqsimlanishidir. Keng ma'noda bu jinoyat-protsessual huquqning instituti bo'lib, u muayyan jinoyat ishini qaysi organ yoki mansabdor shaxs tergov qilishga vakolatli ekanligini belgilaydi. Tergovga tegishlilik: predmetli (turga oid) – jinoyat turlari bo'yicha; hududiylik – jinoyat sodir etilgan joy yoki gumonlanuvchi, ayblanuvchi, guvohlar joylashgan manzil bo'yicha; shaxsiy – jinoyat subyekti (masalan, harbiylar, voyaga yetmaganlar, huquq-tartibot organlari xodimlari) bo'yicha belgilanadi.

Jinoyat ishlarining tergovga taalluqliligi bu jinoyat ishini ichki tergov tizimida qaysi darajadagi organ (tuman/shahar, viloyat, markaziy apparat) tergov qilishi lozimligini belgilaydigan, JPKda tartibga solinmagan, amalda esa idoraviy normativ hujjatlar (yo'riqnomalar, buyruqlar, nizomlar) orqali aniqlanadigan tashkiliy-protsessual institutdir.

Shuningdek, tergovchining protsessual mustaqilligini kodeksda prinsip darajasida qayd etilishini ta'minlash maqsadida JPKga yangi "Tergovchining protsessual mustaqilligi" deb nomlangan 141-modda kiritish va uni quyidagi tahrirda belgilash taklif etiladi:

*141-modda. Tergovchining protsessual mustaqilligi*


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

*Jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni amalga oshirishda tergovchilar faqat Konstitutsiya va qonunga bo'ysunadilar.*

*Tergovchi mustaqil ravishda tergovni amalga oshiradi, tergov va boshqa protsessual harakatlarni bajarish yuzasidan qarorlar qabul qiladi, ushbu kodeksda belgilangan tartibda prokuror va sudning ruxsati talab etiladigan holatlar bundan mustasno. Tergovchining jinoyatlarni tergov qilish borasidagi faoliyatiga biron-bir tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi va bunday aralashuv qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo'ladi.*

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-yanvardagi "Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish sohasida davlat nazorati mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda unda "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining hududiy viloyat boshliqlari Bosh prokuror o'rinbosari – departament boshlig'i tavsiyasi asosida Bosh prokuror buyrug'i bilan lavozimga tayinlanishi va lavozimidan ozod etilishi, shuningdek, departamentning hududiy viloyat boshliqlari bir vaqtning o'zida viloyat prokurori o'rinbosari hisoblanishi" mazmunidagi o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish lozim bo'ladi.

Shu bilan birga, bugungi kunda departament faoliyati alohida qonun hujjatlari bilan tartibga solinmaganligi sababli, "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunning 18-moddasiga quyidagicha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq:

18-modda. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti (bundan buyon matnda departament deb yuritiladi) prokuratura organlari tarkibidagi yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish borasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi tuzilma hisoblanadi.

Uning asosiy vazifalari quyidagilarni tashkil etadi:

– yashirin iqtisodiyot ko'lamini keskin qisqartirish orqali mamlakatda sog'lom raqobat va xususiy biznesni rivojlantirish;

– yashirin iqtisodiyot shakllanishining turli sxemalari, xufiyona ishlab chiqarish va noqonuniy moliyaviy oqimlarga barham berish orqali iqtisodiy barqarorlikni va aholi farovonligini ta'minlash;

– keng jamoatchilikda yashirin iqtisodiyotga murosasizlik hissini shakllantirish va boshqalar.

Departamentga O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan departament boshlig'i rahbarlik qiladi. Departament boshlig'i bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'rinbosari hisoblanadi.

Departament boshlig'ining o'rinbosarlari departament boshlig'ining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

Departamentning markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari va hududiy boshqarmalari boshliqlari departament boshlig'ining taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi. Departamentning hududiy boshqarmalari boshliqlari bir vaqtning o'zida viloyat prokurori o'rinbosari hisoblanadi.

Departamentni va uning joylardagi bo'linmalarini tashkil etish hamda ularning faoliyati tartibi qonunchilikda belgilanadi.

Yuqoridagi takliflarni amaliyotga joriy etish muhim bo'lib, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi va Transport prokuraturasining taklif etilayotgan amaliyotni qo'llab kelayotganliklarini alohida e'tirof etish lozim.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizning har jabhada bo'lgani kabi jinoiy-huquqiy sohada inson qadri va manfaatlari yo'lida olib borilayotgan islohotlar natijasi, eng avvalo, huquqning amalda ishlashida namoyon bo'ladi. Mazkur islohotlar yo'lini izchillik bilan davom ettirish esa nafaqat davlatimiz, balki xalqimizning ham manfaatlariga mos ravishda huquqiy tartibni saqlashga xizmat qiladi.

## REFERENCES

AAG IT Services. (2025, October). *The latest cyber crime statistics.* AAG IT Support. https://aag-it.com/the-latest-cyber-crime-statistics/

Abdurakhmanova, N. (2019). Judicial practice of civil courts related to refusing to accept a statement of claim for proceedings or returning it: Problems and solutions. *Lawyer Herald,* (2), 25.

Adygezalova, G., Dolgov, A., Lukozhev, H., Faroi, T., & Redkovskiy, M. (2022). The social role and procedural independence of the investigator in the criminal proceedings of the Russian Federation. *Jurídicas CUC, 18*(1), 217–240. https://doi.org/10.17981/juridcuc.18.1.2022.10

Aleksandrov, A., & Marchuk, A. (2003). Podsledstvennost ugolovnyh del [Criminal jurisdiction]. *Russian Justice,* (10).

Aniq.uz. (2024). *Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish borasida davlat nazorati kuchaytirilmoqda [State control over the fight against the shadow economy is being strengthened].* https://aniq.uz/yangiliklar/yashirin-iqtisodiyotga-qarshi-kurashish-borasida-davlat-nazorati-kuchaytirilmoqda

Bykov, V. M. (2012). Sledovatel kak uchastnik ugolovnogo protsessa so storony obvineniya [The investigator as a participant in the criminal process on the prosecution side]. *Legality*, (7), 3–9.

Federal Republic of Germany. (1879). *Code of Criminal Procedure.* Federal Ministry of Justice portal.

Fundamental Digital Library "Russian Literature and Folklore". (n.d.). *Fundamental Digital Library "Russian Literature and Folklore" (FEB-web).* https://feb-web.ru/

Gavrilov, B. Ya. (2009). Pereraspredelenie protsessualnykh i nadzornykh polnomochii mezhdu prokurorom i rukovoditelem sledstvennogo organa: obektivnaya neobkhodimost ili volyuntarizm v prave? [Redistribution of procedural and supervisory powers between the prosecutor and the head of the investigative body: An objective necessity or voluntarism in law?]. *Criminal Trial,* (4), 35–44.

Gorjunov, V. V. (2024). *Protsessualnaya samostoyatelnost sledovatelya v svete reformy sledstvennogo apparata [The procedural autonomy of the investigator in light of the reform of the investigative apparatus].* WiseLawyer. https://wiselawyer.ru/poleznoe/58817-processualnaya-samostoyatelnost-sledovatelya-svete-reformy-sledstvennogo-apparata

Karshiyev, A. (2024). *Bosh prokurorda yangi oʻrinbosar paydo boʻldi [New deputy appointed to the Prosecutor General's Office].* Kun.uz. https://kun.uz/kr/11790684

Kaziev, Z. G., & Akhpanov, A. N. (2020). Strategy for the development of criminal procedure law and legislation of the Republic of Kazakhstan. *Bulletin of the Institute of Legislation and Legal Information of the Republic of Kazakhstan, 3*(57), 72–80. https://vestnik.zqai.kz/index.php/vestnik/article/view/260

Khimicheva, G. P. (2003). *Dosudebnoe proizvodstvo po ugolovnym delam: kontseptsiya sovershenstvovaniya ugolovno-protsessualnoi deyatelnosti [Pre-trial proceedings in criminal cases: A concept for improving criminal procedural activity].* Ekzamen.

Kondratenkova, M. V. (n.d.). *Podsledstvennost sledstvennyh podrazdeleniy organov MVD RF [Investigative jurisdiction of the investigative units of the Ministry of Internal Affairs of the Russian Federation].* CyberLeninka. https://cyberleninka.ru/article/n/podsledstvennost

Kurbanova, Z. (2025). *Jurisdiction of administrative cases.* Jurnalist24. https://jurnalist24.uz/?p=5449

Kuznetsov, S. A. (2020). *Tolkovyj slovar Kuznetsova [Kuznetsov's explanatory dictionary].* http://gufo.me/dict/kuznetsov/подследственность

Matnazarov, O. (2024a). *Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish boʻyicha davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlari belgilandi [Priority directions of state policy on combating the shadow economy have been defined].* Kun.uz. https://kun.uz/kr/news/2024/01/18/yashirin-iqtisodiyotga-qarshi-kurashish-boyicha-davlat-siyosatining-ustuvor-yonalishlari-belgilandi

Matnazarov, O. (2024b). *Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tergov qiladigan idoraga aylantiriladi [The Department for Combating Economic Crimes will be transformed into an investigative body].* Kun.uz.

Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. (2017). *Instruction on the procedure for organizing inquiry and preliminary investigation in the internal affairs bodies of the Republic of Uzbekistan* (Approved by Order No. 100 dated June 12, 2017).

Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan. (2025). *Report from the Center for Legal Statistics and Operational-Accounting Data on crime dynamics for 2021–2024.*

OʻCarroll, L. (2024, July 30). *EU states 'not properly investigating' reports of rights violations at borders.* The Guardian. https://www.theguardian.com/world/article/2024/jul/30/eu-states-not-properly-investigating-reports-rights-violations-borders


E-ISSN 2181-1148
ISSN 2181-919X

Odashev, A. O. (2021). Fuqarolik ishlarining sudlovga tegishlilik tushunchasi va ahamiyati [The concept and significance of jurisdiction in civil cases]. *Scientific Progress, 2*(2), 1044–1051.

Popova, T. Yu. (2010). Influence of remedial and administrative powers of the head of investigatory body on realization of procedural independence of the investigator. *Legal Science and Practice, 1*(12), 161–165. https://media.mvd.ru/files/application/1000854

Prokhorov, A. M. (Ed.). (2010). *Bolshaya sovetskaya entsiklopediya [Great Soviet Encyclopedia].* https://gufo.me/dict/bse/

Republic of Kazakhstan. (2001). *Criminal Procedure Code of the Republic of Kazakhstan*. Yurist.

Republic of Lithuania. (2002). *Code of Criminal Procedure of the Republic of Lithuania.* Official Gazette, No. 37-1341.

Republic of Uzbekistan. (2024b). *Law "On the Commissioner for Children's Rights (Children's Ombudsman) of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan" (No. LRU-917).* Lex.uz. https://lex.uz/uz/docs/6823379

Republic of Uzbekistan. (2025a). *Law "On amendments and additions to certain legislative acts of the Republic of Uzbekistan in connection with the improvement of the system for combating economic crimes" (No. LRU-1038).* Lex.uz. https://lex.uz/uz/docs/7404929

Rossinskiy, S. B., & Bazarova, D. B. (2023). Procedural independence of the investigator: Myth or reality? *The American Journal of Political Science Law and Criminology, 5*(6), 44–56. https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume05Issue06-09

Rusch, J. (2014). *Investigating complex crime.* In I. Bantekas & E. Mylonaki (Eds.), *Criminological approaches to international criminal law* (pp. 93–116). Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9781107446700.006

Russian Federation. (2001). *Criminal Procedure Code of the Russian Federation (No. 174-FZ)*. Collected Legislation of the Russian Federation.

Salimova, I. (2020). *Jurisdiction of economic disputes (Theoretical-legal and procedural aspects)* (Abstract of doctoral dissertation). Tashkent State University of Law.

Sukharev, A. Ya. (Ed.). (2008). *Bolshoy yuridicheskiy slovar [Large law dictionary].* https://law.niv.ru/doc/dictionary/large-legal/articles/776/podvedomstvennost.htm

Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. (2025a). *Classification of cases heard in criminal courts by degree of social danger.* Statistical Data on Criminal Cases. https://stat.sud.uz/criminal

Supreme Court of the Republic of Uzbekistan. (2025b). *Official data of the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan (No. 07-13/25-42577).*

United Nations Office on Drugs and Crime. (2021). *UNODC strategy 2021–2025.* United Nations. https://www.aidsdatahub.org/sites/default/files/resource/unodc-strategy-2021.pdf

Zhamieva, R., Tulaganova, G., & Ibratova, F. (2021). Legal issues of procedural independence of the investigator when conducting investigative and other procedural actions. *Norwegian Journal of Development of the International Science*, (74), 24–29.

Zharova, A. E. (2010). *Protsessualnaya samostoyatelnost sledovatelya v ugolovnom protsesse [The procedural autonomy of the investigator in criminal proceedings].* Siberian Law University. https://conf.siblu.ru/processualnaya-samostoyatelnost-sledovatelya-v-ugolovnom-processe

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI
# ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК
# REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

**2026-yil 2-son**

VOLUME 10 / ISSUE 2 / 2026

DOI: HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.ROLS.2026.10.2.